

**TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.01/2025.27.12.Ped.11.01 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**ATAMURATOVA MUNIRA MAXAMADIYEVNA**

**TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIGA  
INGLIZ TILINI O'QITISHDA PRAGMATIK KOMPETENSIYANI  
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02-Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Termiz-2026**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical  
sciences**

**Atamuratova Munira Maxamadiyevna**

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalariga ingliz tilini o'qitishda pragmatik kompetensiyani rivojlantirish metodikasini takomillashtirish ..... 5

**Атамуратова Мунира Махамадиевна**

Совершенствование методики развития прагматической компетентности в процессе преподавания английского языка студентам высших медицинских учебных заведений..... 23

**Atamuratova Munira Makhamadiyevna**

Improving the methods of developing pragmatic competence in the process of teaching English language to students at higher medical institutions ..... 47

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 51

**TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.01/2025.27.12.Ped.11.01 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**ATAMURATOVA MUNIRA MAXAMADIYEVNA**

**TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIGA  
INGLIZ TILINI O'QITISHDA PRAGMATIK KOMPETENSIYANI  
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02-Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Termiz-2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Ped4983 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.terspi.uz](http://www.terspi.uz)) hamda “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Mustafayeva Nilufar Ulashovna**

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Botirova Shahlo Isomiddinovna**

pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Mamarajabova Zulfiya Narboyevna**

pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat pedagogika instituti huzuridagi PhD.01/2025.27.12.Ped.11.01 raqamli Ilmiy Kengash asosidagi bir martalik Ilmiy Kengashning 2026-yil 28-mart kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 190111, Termiz tumani, “Yangiobod” MFY At-Termiziy ko‘chasi, 1-A uy.Tel.: (376) 221–93–56, faks: (376) 221–93–56, e-mail: [terdpi@umail.uz](mailto:terdpi@umail.uz))

Dissertatsiya bilan Termiz davlat pedagogika instituti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№23-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 190111, Termiz tumani, “Yangiobod” MFY At-Termiziy ko‘chasi, 1-A uy.Tel.: (376) 221–93–56, faks: (376) 221–93–56, email: [terdpi@umail.uz](mailto:terdpi@umail.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 16-mart kuni tarqatildi.

(2026-yil 16-martdagi (№23-raqamli reestr bayonnomasi).



**Sh.A.Kuldasheva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, k.f.d., professor

**M.K. Ismailov,**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.d., (PhD) dotsent.

**O‘.N. Sultanova,**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, p.f.d., professor.

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda barcha sohalarda xalqaro hamkorlikni jadallashtirish tibbiyot sohasida ham sezilarli darajada bo‘lib, bu esa o‘z navbatida soha mutaxassislarining xorijiy tillarda muloqoti xalqaro hamjamiyat talablarida bo‘lish zaruratini anglatadi. Zeroki, bunga erishish soha mutaxassislarining o‘zaro muloqotida, bemor bilan suhbatlashuv jarayonida pragmatik kompetentlik darajasi, bunda so‘z shakl va ma’nosidan to‘g‘ri foydalana olish, xushmuomalalik, madaniyatlara muloqotni egallaganlik kabi elementlarni egallashi xorijiy tillarni o‘rganishdagi muhim zaruriyat hisoblanmoqda. Bu xalqaro loyihalarda, xususan, EMP (English for Medical Purposes) yo‘nalishida xorijiy tillarni o‘qitish masalalari ERASMUS dasturining “Strategik hamkorlik: tibbiyot talabalari uchun til kurslari” tashabbusi doirasida chuqur o‘rganilmoqda. Mazkur loyihada tibbiyot sohasi konteksti orqali ingliz tilining amaliy qo‘llanilish jarayonlarini takomillashtirish, shuningdek, kasbiy leksika va terminlarning kommunikativ muloqotda pragmatik kompetensiyani namoyon etuvchi hamda uni faol shakllantirish vosita sifatidagi ahamiyatini ilmiy asosda yoritish asosiy vazifalaridan biri etib tayinlangan<sup>1</sup>.

Dunyo miqyosida tibbiyot yo‘nalishi talabalari uchun xorijiy tillarni o‘qitishda ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan, mazmunga asoslangan o‘qitish (content-based teaching) hamda topshiriqqa asoslangan o‘qitish (task-based teaching) kabi yondashuvlar va podcast vositasida mashg‘ulotlarni qizg‘in joriy etish takomillashib bormoqda. Ushbu jarayonda EMP (English for Medical Purposes) doirasida talabalarning pragmatik kompetensiyasini rivojlantirish, og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirish hamda ingliz tilidan kasbiy muloqot jarayonida foydalanishni takomillashtirish bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xorijiy til ta’limi jarayonida tibbiyot yo‘nalishi talabalari savol berish, uzr so‘rash, kommunikativ noaniqliklarni bartaraf etish kabi nutqiy strategiyalarni egallashi, shifokor–bemor va shifokor–hamkasblar o‘rtasidagi muloqot madaniyatining xalqaro me‘yorlarga mos shakllantirilishi muhim o‘rin tutadi, bu esa o‘z navbatida tibbiyot ta’limida pragmatik kompetensiyani rivojlantirish hamda kasbiy muloqot jarayonida axborotni adekvat qabul qilish va samarali yetkazishga xizmat qiluvchi nazariy-metodik asoslarni takomillashtirishning metodik tizmini ishlab chiqish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Respublikamizdagi ta’lim tizimining halqaro sohalarda integratsiyalashuvi, ingliz tilini o‘rganayotgan bo‘lajak soha mutaxassislarining kommunikativ malakalarini rivojlantirish, pragmatik kompetentlikni takomillashtirishni asosiy omil qilib belgilanishi, ESP sohasida o‘quv faoliyatini modernizatsiya qilish, xalqaro ta’lim standartlarini milliy sog‘liqni saqlash tizimiga integratsiyalash, aholi salomatligini muhofaza etish bilan bog‘liq dolzarb masalalar yuzasidan kompleks ilmiy izlanishlarni yo‘lga qo‘yish hamda bo‘lajak tibbiyot talabalarining ingliz tilida muvaffaqiyatli kasbiy muloqot olib borish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Shu bilan birga, xorijiy tillarni o‘qitishda

---

<sup>1</sup> Rotzoll, D. The LernKlinik Leipzig “Erasmus-Week” programme for incoming medical students. 2018. <https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC6326402/pdf/JME-35-56.pdf>

innovatsion metodikalarni joriy etish, talabalarning nutqiy va kommunikativ kompetensiyasini oshirish, global mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni ta'minlovchi zamonaviy metodik bazani shakllantirish ta'lim tizimi rivojining strategik vazifalari qatoriga kiritilgan<sup>2</sup> va bu borada izchil chora-tadbirlar va amaliy ishlar olib borilmoqda. Xususan, "O'zbekistonning ochiqlik siyosati, dunyo bozoriga faol kirib borayotgani, barcha sohalarida hamkorlik kengayotgani xorijiy tillarni bilishga ehtiyojni kengaytirmoqda. Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish"<sup>3</sup> maqsad qilib belgilangan. Ushbu maqsadni amalga oshirishda bo'lajak shifokorlarning ingliz tilida professional-pragmatik kompetensiyalarini rivojlantirishga oid kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son – O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risidagi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-27-son farmoni, 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son, 2021-yil 1-apreldagi "Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5047-son, 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-son, 2021-yil 30-iyuldagi "Oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim olish imkoniyatlarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5203-son, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 312-son qarori, 2022-yil 19-yanvardagi "Xorijiy tillarni o'rganishni takomillashtirish bo'yicha qo'shma chora-tadbirlari to'g'risida"gi 34-son, 2020-yil 31-dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son "Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishida ustuvor yo'nalishlarga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalar

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarori "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida".

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2021-yil 6-may kuni chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishidagi nutqi. Elektron resurs: <https://president.uz/oz/lists/view/4327> .Murojat qilingan sana: 22.05.2025.

rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy-huquqiy, iqtisodiy hamda madaniy-ma’naviy yo‘nalishlarda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amaliyotga tatbiq etish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Chet tilini kasbiy yo‘naltirilgan holda o‘qitish, tibbiyot yo‘nalishi talabalarida kommunikativ va pragmatik kompetensiyani shakllantirish masalalari zamonaviy lingvodidaktika va pedagogika fanlarida dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘qitish masalalari yetuk mutaxassis olimlar jumladan, G.X.Bakiyeva, J.J.Jalolov, L.T.Axmedova, T.K.Sattarov, D.R.Djumanova, D.U.Xoshimova, N.P.Babaniyazova, A.B.Raxmanovlarning ishlarida ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Ingliz tilini o‘qitish metodikasi va kommunikativ va kasbiy yo‘naltirilgan yondashuvlar bo‘yicha O‘H. Hoshimov F.M.Rashidova, F.Sh.Alimov, K.Sh.Muradkasimova, M.X.Gulyamova, N.U.Mustafayeva, H.F.Maksudova, G.T.Maxkamova, D.Olimova, K.D.Riskulova, N.N.Normamatova, F.J.Masharipova, P.X.Omonov kabi olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan bo‘lib, ularning tadqiqotlarida chet tilini real nutqiy vaziyatlarga asoslangan holda o‘qitish, muloqot maqsadini hisobga olish hamda kasbiy kontekstda til birliklarini tanlash masalalari yoritilgan. Mazkur yondashuvlar tibbiyot yo‘nalishidagi talabalar pragmatik kompetensiyasini rivojlantirish uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) olimlari tadqiqotlarida chet tilini kasbiy yo‘naltirilgan o‘qitish, kommunikativ kompetensiyani shakllantirish hamda pedagogik modellashtirish masalalari nazariy-metodologik jihatdan asoslangan. Jumladan, I.A.Zimnyaya, E.I.Passov, N.D.Galskova, S.G.Ter-Minasova, V.V.Safonova, O.B.Sysoyev ishlarida chet tilini o‘qitishda kommunikativ, madaniyatlararo va kasbiy yondashuvlarning konseptual asoslari ishlab chiqilgan. Mazkur tadqiqotlarda pragmatik kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy komponenti sifatida talqin etilgan.

Xorijiy olimlar tomonidan pragmatik kompetensiya tushunchasi, uning kommunikativ kompetensiya tarkibidagi o‘rni va chet tilini o‘qitish jarayonidagi ahamiyati G.Kasper, K.R.Rose, R.Schmidt, D.Tannen, S.Blum-Kulka, D.Hymes, J.Austin, J.Searle, T.Leech, L.Bachman, C.Canale va H.Spencer-Oatey kabi Olimlarning ishlarida yoritilgan bo‘lib, asosan, pragmatika, nutq aktlari nazariyasi, kontekstga mos muloqot va ijtimoiy-madaniy omillarning til o‘rganishdagi rolini ilmiy asoslab berilgan. Shuningdek, ESP (English for specific purposes) doirasida tibbiyot sohasi uchun chet tilini o‘qitish masalalari H.Dudley-Evans, T.Hutchinson, A.Waters, B.Paltridge tadqiqotlarida yoritilib, kasbiy diskurs va real kommunikativ vaziyatlarga asoslangan yondashuvlar taklif etilgan. Biroq, mazkur tadqiqotlarda pragmatik kompetensiyani aynan tibbiyot talabalari uchun maqsadli metodika asosida rivojlantirish masalasi yetarlicha tizimli yoritilmagan.

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yurtimizda chet tillarni samarali o‘qitishda nutq va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda olib borilgan ilmiy izlanishlarga qaramasdan, aynan tibbiyot yo‘nalishidagi talabalarning pragmatik kompetensiyasini takomillashtirish ahamiyati ko‘rib chiqilmagan. Shu

sababli ushbu mavzu doirasida ilmiy-tadqiqot ishini olib borish dolzarb deb hisoblaymiz.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot ishi Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Kasbga yo'naltirish, qayta tayyorlash va mutaxassislar malakasini oshirish, o'quv ishlab chiqarish tizimida milliy, an'anaviy bazani hamda ushbu yo'nalishda ta'lim berish jarayonining amaliy-uslubiy asoslarini yaratish" bandi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** tibbiyot oliy ta'lim muassasasi talabalarining ingliz tilini o'rganish jarayonida pragmatik kompetensiyasini rivojlantirish samaradorligini oshirishga qaratilgan metodik tizimni takomillashtirish, taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** sifatida quyidagilar belgilab olindi:

davolash yo'nalishi talabalarida pragmatik kompetensiyani rivojlantirishning lingvodidaktik asoslarini aniqlashtirish;

podcast texnologiyasiga asoslangan pragmatik ta'lim jarayonini takomillashtirish;

davolash yo'nalishi talabalarining ingliz tilidagi pragmatik kompetensiyasini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

pragmatik kompetensiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik tavsiyalar majmuini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida tibbiyot oliygohlarining davolash yo'nalishi talabalarining "Tibbiyotda xorijiy til" amaliy mashg'ulot jarayoni belgilanib, tajribas-inov ishlariga Toshkent tibbiyot akademiyasi, Samarqand, Buxoro tibbiyot institutlarining 540 nafar respondent-talabalari jalb qilindi.

**Tadqiqotning predmetini** ingliz tilini o'qitish orqali talabalarning pragmatik kompetensiyasini rivojlantirish mohiyati, ta'lim mazmuni, shakl va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot davomida adekvat holatda o'rganishni ta'minlashga qaratilgan metodlar majmui qo'llanildi: nazariy (tahliliy-statistik, qiyosiy-taqqoslash), diagnostik (so'rovlar, suhbat, so'rovnoma, kuzatish), prognoztik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba va matematik metodlar (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash va boshqalar).

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

davolash yo'nalishi talabalarining pragmatik kompetensiyani rivojlantirishning lingvodidaktik asoslari ESP va ESAP kontekstida kasbiy diskursni shakllantirish hamda pragmatik xabardorlikni o'zlashtirish ko'rsatkichlari kompetensiyaviy yondashuv asosida aniqlashtirilgan;

podkast texnologiyasiga asoslangan pragmatik ta'lim jarayoni "blended-learning", "case-study", "debate" kabi interfaol metodlardan foydalanish hamda klinik kommunikativ simulyatsiya, madaniyatlararo sezgirlik va pragmatik strategiyalarni integrativ o'qitish asosida takomillashtirilgan;

davolash yo'nalishi talabalarining ingliz tilidagi pragmatik kompetensiyasini rivojlantirish modeli kompetensiyaviy va faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim

yondashuvida interaktiv klinik vaziyatlar, situatsion mashg'ulotlar va reflektiv tahlil usullarini integratsiyalash orqali takomillashtirilgan;

pragmatik kompetensiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik tavsiyalar majmui adaptiv o'qitish, raqamli lingvodidaktika va kommunikativ samaradorlikni oshirish vositalari asosida ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

davolash yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan "English in Medicine" darsligi hamda podkast texnologiyasi asosida talabalarning pragmatik kompetensiyasini takomillashtirishga yo'naltirilgan metodikaning tizimli modeli ishlab chiqildi va takomillashtirildi. Mazkur model asosida kompetensiyaviy hamda faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim paradigmasi doirasida interaktiv klinik vaziyatlar, situatsion mashg'ulotlar va reflektiv tahlil elementlari amaliy jihatdan tibbiy ta'lim jarayoniga integratsiya qilinib, ingliz tilini o'qitish samaradorligi ilmiy jihatdan asoslandi;

davolash yo'nalishi talabalarining ingliz tilidagi pragmatik kompetensiyasini rivojlantirishga mo'ljallangan "English for medical purposes" hamda "English for medicine students" nomli o'quv-qo'llanmalari ishlab chiqilgan hamda "Tibbiyotda xorijiy til" o'quv fani mazmuniga singdirilib, ta'lim jarayoniga joriy etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qo'yilganligi, unda qo'llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning ilmiy, metodik, rasmiy manbalardan olinganligi, oliy ta'limda "Tibbiyotda xorijiy til" fani o'qitilishining o'quv-uslubiy ta'minoti (DTS, o'quv dasturi) va boshqa me'yoriy hujjatlar o'rganilganligi, o'tkazilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik usullari vositasida asoslanganligi, tadqiqot ishi xulosalari, berilgan taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati davolash yo'nalishi talabalari uchun ingliz tili ta'limida sohaviy terminlarni o'qitish jarayonida pragmatik kompetensiyani podkast texnologiyasi asosida takomillashtirishning nazariy-metodik asoslarini belgilab, ta'lim tizimida pragmatik kompetensiyaning asosiy xususiyatlari, podkast texnologiyasining tibbiy oliy ta'lim davolash yo'nalishidagi talabalarning pragmatik kompetensiyasini takomillashtirishdagi muhim omili o'rganilganligi, tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida xususan, "Tibbiyotda xorijiy til" fanida foydalanishning metodik imkoniyatlari yoritib berilganligi va ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishda tatbiq etish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan mashqlar, taklif va tavsiyalar tibbiy oliy ta'limning davolash yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning ingliz tili amaliy mashg'ulotlarida pragmatik kompetensiyani takomillashtirishga yo'naltirilgan innovatsion texnologiyaning ishlab chiqilganligi, o'quv dasturlarini takomillashtirish, darslik va o'quv qo'llanmalar yaratish, talabalarda kasbiy kompetensiyani chuqurlashtirish, kommunikativ muhitda nutqiy moslashuvchanlikni ta'minlash hamda chet tilini o'zlashtirishga bo'lgan ichki motivatsiyani kuchaytirish, hamda nutqiy-pragmatik kompetensiyasini tizimli ravishda rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tibbiyot talabalariga ingliz tilini o‘qitishda pragmatik kompetensiyani rivojlantirish metodikasini takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

davolash yo‘nalishi talabalarining pragmatik kompetensiyani rivojlantirishning lingvodidaktik asoslari ESP va ESAP kontekstida kasbiy diskursni shakllantirish hamda pragmatik xabardorlikni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar “English in medicine” nomli darsligi mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 22-dekabrda 537-son buyrug‘i, ro‘yxatga olish raqami № 537403). Natijada, davolash yo‘nalishi talabalarida pragmatik kompetensiyani rivojlantirishning lingvodidaktik asoslari takomillashtirish imkoni yaratilgan.

podkast texnologiyasiga asoslangan pragmatik ta’lim muhitini raqamli pedagogika, autentik audio-diskurs, klinik kommunikativ simulyatsiya, madaniyatlararo sezgirlik va pragmatik strategiyalarni integrativ o‘qitish vositalari orqali takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar “English for medical purposes” nomli o‘quv qo‘llanmasi mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 7-mayda 149-son buyrug‘i, ro‘yxatga olish raqami №544376). Natijada, ingliz tilini o‘qitishda ravon nutqiy ko‘nikma jarayoni pragmatik kompetensiyaning takomillashuvi va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ingliz tilini sohaviy yo‘nalishda o‘qitishda qo‘llash imkoniyatlarini oshirishga xizmat qilgan.

davolash yo‘nalishi talabalarining ingliz tilidagi pragmatik kompetensiyasini rivojlantirish modelini kompetensiyaviy va faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvida klinik vaziyatlar, situatsion mashg‘ulotlar va reflektiv tahlil usullarini uyg‘unlashtirish orqali takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2020-2023-yillarda bajarilgan “O‘zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish” nomli fundamental loyiha doirasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 26-fevralda 04/1-486-son ma’lumotnomasi). Natijada, tibbiyot yo‘nalishida ingliz tili ta’limini modernizatsiyalash, pragmatik kompetensiyani rivojlantirishning metodologik, pedagogik va psixologik jihatlarni tizimli takomillashtirish imkoniyati yaratilgan.

pragmatik kompetensiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik usullar majmuini adaptiv o‘qitish, raqamli resurslardan samarali foydalanish, nutqiy avtonomiya, o‘zaro baholash va kommunikativ samaradorlikni oshirish strategiyalariga tayangan holda takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar “English for medical students” nomli o‘quv qo‘llanmasi mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil, 17-iyulda 314-son buyrug‘i, ro‘yxatga olish raqami №424539763567810580). Natijada, pragmatik kompetensiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik usullar majmuini takomillashtirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusining asosiy mazmuni jami 24 ta ilmiy-uslubiy ishlarda o‘z aksini topgan bo‘lib, shu jumladan, 1 ta darslik, 2 ta o‘quv qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasining dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 14

ta maqola, 8 tasi respublika va 6 tasi xorijiy jurnallarda, respublika va xalqaro miqyosidagi boshqa ilmiy jurnallarda 4 ta maqola nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 148 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, ishning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan. Shuningdek, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, olingan natijalarining ishonchliligi hamda amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Sohaviy yo'nalishda pragmatik kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan bo'lib, uch paragrafdan iborat. Mazkur bobning birinchi paragrafida pragmatik kompetensiyasi tushunchasi, kommunikativ kompetensiya modellaridagi tarkibiy qism sifatidagi ahamiyati hamda nofilologik yo'nalishlarda ingliz tili o'qitish jarayonida pragmatik kompetensiyani rivojlantirish metodikasining nazariy asoslari ilmiy-nazariy tahlil qilingan. Tahlillarga ko'ra, ESP sohasida til o'qitishda lingvistik kompetensiyani rivojlantirish bilan bir vaqtda ularning funksional vazifasini ham bilish samarali muloqotni yaratib berish xizmat qiladi.

Xorijiy til o'qitish metodikasi uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida, xususan, oliy ta'limda ham kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'limni tashkil etish masalasiga alohida ahamiyat qaratishni ko'zda tutadi. Bugungi kunda ta'lim oluvchilarni millat va madaniyatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish, xalqaro hamkorlik aloqalariga tayyorlash muhim ustuvor vazifa sifatida belgilab qo'yilganligi talabalarning o'rganilayotgan xorijiy tildagi bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishni taqozo etadi. Fikrimiz isboti sifatida davlatimiz rahbarining **“Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”**gi 5847-farmonida ham o'z aksini topgan.

Davolash yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarda pragmatik kompetensiyani shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari quyidagicha aniqlanadi: pragmatik kompetensiya tilni amaliy qo'llashda, xususan, bemorlar bilan muloqotda kontekst, madaniy farqlar va ijtimoiy normalarni hisobga olgan holda samarali kommunikatsiyani ta'minlaydigan ko'nikmalar majmuasi sifatida ta'riflanadi, bu esa tibbiy ta'limda shaxsiy va kasbiy rivojlanishni rag'batlantiruvchi yondashuvlar orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, **“cross-culture”**, **“politeness”** va **“social norms”** kabi madaniyatlararo muloqot konseptlarini tibbiy ta'lim mazmuni bilan integrativ bog'lash talab etiladi. Bu konseptlar tibbiyot talabalariga turli madaniyatlardagi bemorlar bilan muloqotda madaniy sezgirlik va mulohazakorlikni oshirishga yordam beradi, masalan, madaniy kompetensiyani ta'lim dasturlariga kiritish orqali sog'liqni saqlashdagi noaniqliklarni bartaraf etish va bemor-markazli yondashuvni ta'minlash mumkin. Demakki, ESP sohasida til o'qitishning asosiy tarkibiy qismi bu

o'qituvchining auditoriyada samarali muloqot va haqiqiy bahs uchun muhit yaratib berish qobiliyati hisoblanadi.

Pedagog olimlarimiz J.Jalolov, G.Mahkamova, va Sh.Ashurovlar CEFRning keltirilgan oltita darajasi bo'yicha (A1, A2, B1, B2, C1) xorijiy tilni o'qitishda kommunikativ kompetetsiyaning (domestic model) komponentlarini, lingvistik kompetensiya (til va nutq birliklari va ularni ishlatish qoidalari), sotsiolingvistik kompetensiya (pragmatik, diskursda tildan foydalanish), pragmatik kompetensiya (pragmatik, diskurs, strategik va pragmatik) turlariga bo'ladi. DTS talablari ham bunga uyg'un keladi. Mazkur tushunchalarni umumlashtirgan holda, biz kompetensiyaning tashqi tuzilishini quyidagicha ifodalandi. (1.1-rasmga qarang):




**1-rasm. Kompetensiya komponentlari**

Nofilologik yo'nalishda ingliz tilini o'qitish jarayonida pragmatika tildan foydalanishning sotsiolingvistik jihatlarini nutq aktlari, suhbat tuzilishi, suhbat implikasiyasi, muloqotni boshqarish, nutqni tashkil etish hamda diskurs shakllarini tanlash kabi elementlarni o'z ichiga oladi.

Tilni ishlatish uchun pragmatik qoidalar ko'pincha ongsiz ravishda amalga oshirilganligi sabab, hatto ona tilida so'zlashuvchilar ham pragmatik qoidalar buzilmaguncha (va his-tuyg'ulari shikastlanmaguncha yoki huquqbuzarlik sodir etilmaguncha) ko'pincha bilishmaydi. Pragmatika tilning boshqa sohalariga tegishli ta'lim dasturlarida deyarli e'tiborni jalb etmasada o'rganilayotgan tilni amalda ishlatish qoidalarida o'qituvchi va o'quvchi uchun "maxfiy qoidalar" bo'lmasligi lozim. Turli xil ingliz tilida so'zlashadigan jamoalarda tildan foydalanishni tavsiflovchi ko'plab tadqiqotlar mavjud va ushbu tadqiqotlar pragmatikani o'qitish uchun muhim ma'lumotlarni taqdim etgan.

Pragmatik kompetensiyaning rivojlanishi natijasida shaxsda kommunikativ jarayonlarda maqsadga yo'naltirilgan strategiyalarni qo'llash, nutq aktining mazmuniy hamda formal parametrlari o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash, til va nutq tizimlarining o'zaro determinatsiyasini anglash, shuningdek, kommunikativ vaziyat talablariga mos lingvistik konstruktsiyalarni adekvat qo'llash malakalari shakllanadi. Shu bilan birga, zamonaviy lingvopragmatik tadqiqotlarda "pragmatika" atamasi til birliklarining muloqot ishtirokchilari ongiga maqsadli ta'sir o'tkazish imkoniyatini ifodalovchi nazariy kategoriya sifatida izohlanadi. Tibbiyot sohasi talabalari uchun

ingliz tili amaliy mashgʻulotlarida pragmatik kompetensiyani rivojlantirish masalasi zamonaviy lingvodidaktik tadqiqotlarda kasbiy tayyorgarlikning ajralmas komponenti sifatida talqin etilmoqda. Chunki mazkur kompetensiyaning shakllanishi nafaqat xalqaro ilmiy hamkorlikda samarali ishtirok etish imkonini yaratadi, balki bemor bilan oʻzaro muloqot madaniyatini takomillashtirish, klinik maʼlumotlarni toʻgʻri interpretatsiya qilish va tibbiy amaliyot xavfsizligini taʼminlashga bevosita xizmat qiladi. Shu sababli bu yoʻnalishda ingliz tilini bilish darajasini mustahkamlash uchun onlayn kurslar ham mavjud. Xorijiy tillarda bilim darajasining yetarli boʻlmasligi, boʻlajak mutaxassislar uchun muammoli vaziyatlarni keltirib chiqishi mumkin, yaʼni bunda farmasevtika sohasida yaqqol namoyon boʻlsa, xalqaro jamiyatga aylanib borayotgan vaziyatda xorij bemorlarga va unga zaruriy tibbiy xizmat sifatiga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin boʻlgan vaziyatning yaratilishiga sababchi boʻladi. Ingliz olimlari T. Hutchinson va A. Waters sohaviy ingliz tilini oʻqitishda pragmatik kompetensiyani rivojlantirish uchun taʼlim mazmuni va metodlari oʻquvchining oʻrganish maqsadiga mos boʻlishi lozimligini taʼkidlashgan.



## 2-rasm. Sohaviy ingliz tilini oʻqitishda pragmatik kompetensiyani rivojlantirish

Tadqiqotchi oʻzining yuqorida keltirilgan ESP sohasida til oʻqitishning mazmun–mohiyatini modelda ifodalagan, hamda oʻzining maxsus kurs dizayni va needs analysis (talab-tahlil) tamoyillarini ishlab chiqqan. Dudley-Evans va St. John esa ESP amaliyotida tizimli needs-analysis va multi-disiplinar yondashuvni asosiy tamoyillar qatoriga kiritgan. Shu nazariy asoslarga tayangan holda EMP (English for Medical Purposes) kurslari oʻquvchilarning kasbiy-ilmiy vazifalariga yoʻnaltirilgan taʼlimni koʻzlaydi. Oʻrganishlarimiz natijasida taʼkidlash zarurki, tibbiy tilni oʻrganish va oʻqitishda pragmatik kompetensiya va ilmiy yozuv tadqiqotlari masalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tibbiyot sohasidagi ilmiy va klinik matnlar (ilmiy maqolalar, case-report, protokollar, bemor bilan yozishmalar) oʻziga xos janr va ritorik strukturaga ega boʻlib mazkur sohaning pragmatik masalalari ham talabalarga aniq yondashishni talab qiladi. Odatda, maxsus sohadagi matn mazmunini tushunish axborot uzatish va qabul qilishning ikki bosqichli hodisasi sifatida qaraladi. Bulardan birinchisi, axborotning soʻz shakli va strukturaviy gap qurilishi hisoblansa, ikkinchisi

aniq maqsad bilan uning mazmuniy markazi hisoblanadi. Tibbiyot sohasida o'rganilayotgan matnlar maxsus terminologiyaning dinamik va statistik jihatlarini o'zida mujassam etadi. Bu ikki xususiyatning alohida o'rganilishi tadqiqot usullaridagi nomutanosiblik bilan izohlanadi. Shu bois, ularni yaxlit mazmuniy va pragmatik tuzilma sifatida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Pragmatik mazmunga ega mashqlar tizimidagi tibbiyot sohasiga oid kasbiy matnlar tahlilida denotativ va signifikativ qatlamlar ajralib chiqadi.

Tadqiqotchi Salager-Meyer tibbiy yozuvlarda "hedging" (shubhalash, ehtiyot ifodalar) va uning kommunikativ funksiyalarini o'rganib, klinik va ilmiy muloqotlarda tilning noaniqlik va ehtiyotkorlikni qanday ifodalashi muhimligini ta'kidlagan. Mazkur tadqiqotlar EMP kurslarini yozma va ilmiy axborot bilan ishlashga yo'naltirishni asoslaydi. Tibbiyot yo'nalishida olib borilgan empirik tadqiqotlar ehtiyoj tahlili va kurs baholash ishlari so'nggi yillarda English for Medical Purposes (EMP) bo'yicha keng miqyosda amalga oshirilgan. Bu kabi tadqiqotlar tibbiyot talabalari va o'qituvchilarning maqsadlari, til ko'nikmalari hamda o'quv jarayonidagi ustuvor yo'nalishlarini aniqlashga qaratilgan. Muloqot jarayonida muhim rol o'ynaydigan har bir insonning, jumladan, shifokor va bemorning nutqida aks etuvchi intonatsiya, urg'u, dialektal hamda semantik xususiyatlar nihoyatda xilma-xildir. Shu nuqtayi nazardan, professor I.Ya.Zavilyanskiy shifokorlar nafaqat fikrlash jarayonining qat'iy mantiqiga ega bo'lishlari, balki nutqning ifodaliligi, hissiy boyligi, ta'sirchanligi va obrazlilikini ham doimiy ravishda nazorat qilib borishlari zarurligini ta'kidlaydi.

Tadqiqot ishimizning ikkinchi bobi "**Bo'lajak shifokorlarda pragmatik kompetensiyani rivojlantirish metodikasini takomillashtirish**" deb atalgan, mazkur bob uch paragrafdan iborat. Dissertatsiyamizning ikkinchi bobida tibbiyot yo'nalishidagi talabalarning ingliz tilidan foydalanishda til vositalarining funksional vazifasini bilish metodikasi, tadqiqotning modeli va podkastlar vositasida pragmatik kompetensiyani rivojlantirish hamda mashqlar tizimi masalarini atroflicha ilmiy manbalar yordamida o'rganildi.

Tibbiyot sohasi terminologik murakkabligi, nutq etikasi va kontekstga mos til vositalarini qo'llashga bo'lgan yuqori talab bilan ajralib turadi. Shuning uchun ingliz tilini o'qitish nafaqat grammatik va leksik bilimlarni, balki pragmatik jihatdan to'g'ri, empatik va insoniy muloqot etikasiga asoslangan ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilishi lozim. Pragmatik kompetensiya shifokor-bemor hamda shifokor-shifokor (hamkasblar orasidagi) muloqotida, klinik yozma hisobotlarda va kasbiy axloqiy me'yorlarni ifodalovchi nutq birliklarini tanlashda muhim ahamiyatga ega.

Oliy ta'lim muassasalarida tibbiyot yo'nalishi talablarining pragmatik kompetensiyasini rivojlantirishda mazmunga asoslangan o'qitish (content based teaching) va topshiriqqa asoslangan o'qitish (task based teaching) yondashuvlarda podkastlardan ta'limiy resurs sifatida foydalanish samarali metod sifatida taklif etiladi: podkastlar tibbiyot talabalariga kasbiy mavzularni muhokama qilish, intervyu olish va klinik holatlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, chunki ular qulay va doimiy mavjud bo'lgan formatda tibbiy bilimlarni yetkazishga imkon beradi. Ushbu resurslar asosida kasbiy terminologiyani o'zlashtirishni ta'minlovchi mashqlar tizimini metodik jihatdan takomillashtirish zarur: masalan,

podkastlarni tinglash va muhokama qilish orqali talabalar pragmatik ko'nikmalarni, shu jumladan, madaniy kontekstda terminlarni qo'llashni o'rganadilar, bu esa tibbiy ta'limda kasbiy rivojlanish va doimiy ta'lim (continuous professional development) tamoyillarini mustahkamlaydi. Bunday tizim podkastlarni tibbiyotda interprofessional muloqotni oshirish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish uchun ishlatish bo'yicha tadqiqotlar asosida ishlab chiqilishi mumkin, natijada talabalar kasbiy terminologiyani madaniy sezgirlik bilan qo'llashni o'rganadilar.

Tadqiqotda taklif etilgan podkast texnologiyasi talabani real kommunikativ muhit bilan bog'lash imkonini beradi. Amaliy mashg'ulotlarda podkastlardan keng foydalanish talabalarga haqiqiy (authentic) muhitni ta'minlash bilan bir vaqtda barcha til ko'nikmalarini (reading, writing, listening, speaking) mustahkamlashda, ulardagi pragmatik muloqotning elementlarini ongli tushunishga ko'maklashadi, authentic input, motivatsiya, hamda mustaqil o'qish ko'nikmasini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Biroq amaliy mashg'ulotlarda bunday texnologiyalardan yetarlicha foydalanilmayapti. Shu sababli texnologiyalarni faqat an'anaviy usullarga muqobil sifatida emas, balki o'qitish samaradorligini oshiruvchi vosita sifatida maqsadli va to'g'ri qo'llash zarur.

Maxsus maqsadlarda o'qitiladigan ingliz tili kurslari talabalarning kasbiy salohiyatini oshirish, sohada malakali mutaxassis sifatida shakllanish hamda xalqaro kommunikativ kontekstlarda o'z fikrini erkin ifoda etish va kasbiy muammolarni izchil tushuntira olish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilishi lozim. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalardan foydalanish nafaqat motivatsiyani oshiradi, balki talabalarda til ko'nikmalarini samarali rivojlantirish va kelajakdagi professional faoliyat uchun zarur bo'lgan muloqot va lingvistik qobiliyatlarni shakllantirish imkonini yaratadi.

O'rganilayotgan masala tahlilini quyidagi dialog misoli orqali bayon qilamiz, ishtirokchilar doctor and docr professional communication asosida o'z nutq aktlarini amalga oshirmoqdalar:

Doctor A: Good afternoon, doctor. I'd like to discuss a patient with you if you have a moment.

Doctor B: Of course. Please go ahead.

Doctor A: The patient has been experiencing chest pain and shortness of breath. I was wondering if you could review the ECG results.

Doctor B: Certainly. From what I can see, there are signs of mild arrhythmia. I would suggest adjusting the medication and monitoring the patient closely.

Doctor A: That sounds reasonable. Thank you for your professional opinion. Shall we schedule a follow-up consultation?

Doctor B: Yes, I think that would be appropriate.

Bu dialog orqali talabalarning muloyim murojaat shakllari, taklif va tavsiyalarni yumshoq ifodalash va kelishuvga erishish kabi maqsadlarni ifodalash mumkin. Shuningdek, bu jarayon orqali talabalar qaysi iboralar kasbiy hurmatni ifodalaydi, tavsiyalarni qanday muloyim strategiya orqali berish mumkin, qaysi joyda buyruq emas hamkorlik sezilishini tahlil qilishadi. Bu orqali esa talabalar transformatsiya mashqi orqali dialogdagi to'g'ridan to'g'ri imperative jummalarni toppish va ularni yumshoq, pragmatik jihatdan mos variantga o'zgartirish kabi

topshiriqlarni bajarishadi. Masalan: *Check the ECG again* ning o‘rniga *Could we review the ECG once more?*

Mazkur dialog shifokor–shifokor o‘rtasidagi kasbiy muloqotga yo‘naltirilgan mashqlardan bo‘lib, tibbiyot talabalarida rasmiy nutq strategiyalaridan samarali foydalanish, kasbiy ierarxiyani hisobga olgan holda muloqot olib borish hamda pragmatik kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tibbiyot talabalarida ingliz tilida kasbiy muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishda faqat dialogga asoslangan mashqlar yetarli emas. Shu sababli, shifokor–shifokor o‘rtasidagi professional muloqotni rivojlantirishga yo‘naltirilgan dialogdan tashqari interfaol mashqlar tizimi ishlab chiqildi va tahlil qilindi. Mazkur mashqlar talabalarning pragmatik kompetensiyasini chuqurroq rivojlantirish, ya‘ni nutqiy birliklardan vaziyat, ierarxiya va kasbiy me‘yorlarga mos holda foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Xususan, case analysis mashqi orqali talabalar shifokorlar o‘rtasida qaror qabul qilish, tavsiya berish va kelishuvga erishish jarayonidagi pragmatik strategiyalarni aniqlash va baholash imkoniga ega bo‘ladilar. Ushbu mashqlar davomida kasbiy muloqotda qo‘llaniladigan nutqiy birliklarning rasmiylik darajasi, muloyimlik strategiyalari hamda hamkorlikka yo‘naltirilgan iboralar tahlil qilinadi. Masalan: Terapevt (Doctor A) va kardiolog (Doctor B) bemorning yangi ECG natijalarini muhokama qilmoqda. Bemorda tez-tez yurak urishi va bosh aylanishi kuzatiladi. Terapevt o‘z tavsiyasini bildirishni xohlaydi, kardiolog esa qo‘shimcha tekshiruvlarni tavsiya qiladi.

*Doctor A: Check the patient’s ECG again.*

*Doctor B: I see irregularities. You must adjust the medication.*

Buyruq ohangidagi jumalarni muloyim va hamkorlikka yo‘naltirilgan shaklga qayta ifodalash maqsadida quyidagicha shakllantirish mumkin:

*Doctor A: Could we review the patient’s ECG once more?*

*Doctor B: I see some irregularities. Perhaps we could adjust the medication and monitor the patient closely.* Shuningdek, talabalar bu vaziyatni quyidagicha tahlil qilishlari mumkin:

*Kasbiy qaror qabul qilish:* Talabalar shifokorlar o‘rtasidagi muloqotni baholaydi va qaysi iboralar samarali qaror qabul qilishga yordam berganini aniqlaydi. *Tavsiya berish strategiyalari:* Buyruq ohangidagi jumalar pragmatik jihatdan yumshatiladi, modal fe‘llar va hamkorlikka yo‘naltirilgan iboralar qo‘llanadi. *Kelishuvga erishish:* Dialog vaziyatga moslashtiriladi, hamkorlik va muloyimlikni saqlash orqali shifokorlar o‘rtasida kelishuvga erishiladi. Bu mashq talabalarning lingvistik bilimlarini amaliy kasbiy muloqot bilan integratsiyalashga va shifokor–shifokor o‘rtasidagi kasbiy kommunikativ kompetensiyani mustahkamlashga xizmat qiladi.


Davolash yo‘nalishi talabalar uchun mo‘ljallangan “Chest Pain in a 55-Year-Old Patient” case study mashqi talabalarning pragmatik kompetensiyasini shakllantirishga yo‘naltirilgan. Vaziyat quyidagicha: 55 yoshli Mr. Akmal ko‘krak qismida bosim, o‘ng qo‘l va yelka qismiga tarqaluvchi og‘riq bilan murojaat qiladi. Bemorning diabet va gipertenziya bilan og‘rishi, 2 soat davomida og‘riq mavjudligi, terlash va bosh aylanishi holati klinik kontekstni tashkil etadi.

Talabalar ushbu mashq doirasida birinchi navbatda anamnez olish qobiliyatini amalda sinovdan o'tkazadilar, ya'ni bemordan ingliz tilida to'g'ri savollar berish orqali kerakli ma'lumotlarni olishadi (When did the pain start? Can you describe the type of pain? Do you have any history of heart disease?). Klinik baholash bosqichida pulse, blood pressure, respiration va xavf omillarini aniqlash talab qilinadi. Talabalar shuningdek tashxis variantlarini muhokama qilish orqali kasallikni tahlil qiladi hamda davolash strategiyasini ingliz tilida qisqacha ifodalaydi (masalan, ECG, aspirin, oxygen, qo'shimcha laborator tekshiruvlar va echokardiogram). Mashqning interaktiv qismi sifatida talabalar debate formatida ishlaydi: guruhlar Telemedicine vs. Traditional Clinical Visits mavzusida bahs olib boradilar, qarshi tarafga savollar berib, yakuniy xulosani taqdim etadilar. Bu jarayon talabaning nutqiy avtonomiyasi, kasbiy diskurs dizayni, madaniyatlararo sezgirlik va pragmatik strategiyalarni qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

